



CHIA (*Salvia hispanica*) O‘SIMLIGINI URUG‘LARINING LABORATORIYA SHAROITIDA UNUVCHANLIGINI ANIQLASH

Gulsevar Farxod qizi Meyliyeva

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada haroratning ortib borishi esa urug‘larning dastlabki kundagi unuvchanligiga ijobiy tasir qilgan bo‘lsada, keyingi kunlardagi unuvchanlikni biroz pasaytirishi va umumiy unuvchanlik ham biroz past bo‘lishi kuzatildi. Chia namunalarini laboratoriya sharoitida urug‘larini laboratoriya sharoitida unuvchanligi yuqori bo‘lishi dala tajribalari olib borish yuqori samara berishi mumkinligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar Chia, fiziologiya, noananavi ekinlar xorijiy namunalari urug‘unuvchanligi, unib chiqish quvvati.

ABSTRACT

In this article, the increase in temperature is due to the fact that the seeds in the first day although it has positively influenced the flourish, it is a bit of the flourish of the following days it was observed that the attenuation and overall Unicity were also slightly lower. The ability of Chia samples to germinate seeds in laboratory conditions it has been found that carrying out field experiments with high yields can be high.

Keywords: Chia, physiology, fertility of foreign samples of unconventional crops, germination capacity.

Kirish: Dunyoning barcha davlatlarida oziq-ovqat xavfsizlik masalasi ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Respublikamizda noananali ekinlar yetishtirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PQ-106-son “Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorida “qishloq xo‘jaligi ekinlari selektsiyasi va urug‘chiligi sohasida ilm-fan, ta‘lim va ishlab chiqarishning o‘zaro integratsiyasini ta‘minlash va sabzavot, poliz, dukkakli, noananaviy ozuqa va moyli ekinlarning mahalliy selektsiya navlari urug‘chiligini yo‘lga qo‘yish” kabi vazifalar belgilab berilgan. Bu borada dukkakli ekinlarning genetikasi, selektsiyasi va urug‘chiligini yo‘lga qo‘yish natijasida hosildor, tezpishar, qurg‘oqchilikka chidamli yangi navlar



yaratish dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Noananaviy o'simliklarining inson organizmi uchun ahamiyat kata, masalan chia, quera (oq kino), papaya, batat, bamiya kabi o'simleklar kiradi. Chia bir yillik o'simlik yani issiqqa talabchan o'simlik bo'lib, urug'lari 10-12°C da una boshlaydi. Chia urug'lari 20-22°C da 4-5 kunda unib chiqadi. Bahorgi sovuqlarga chidamsiz. Yosh maysalari ham, katta voyaga ytgan o'zsimliklari ham 1-2°C sovuqda nobud bo'ladi. Chia yorug'likka talabchan o'simlik hisoblanadi. Qurg'oqchil sharoitda o'saolmaydi. Chia biologik xususiyatlariga ko'ra tuproqqa nisbatan talabchan yngil qumli va o'rta qumloq tuproqlar va tegishli pH: yngil kislotali, neytral va asosiy (yngil ishqoriy) tuproqlar yaxshi o'sadi. Qora bo'z, o'tloq bo'z qumoq, soz, sal sh'rlangan tuproqlarda esa o'sa olmaydi. O'zbekistonda unumdor tuproqlar chia uchun eng yaxshi tuproq hisoblanadi va tabi ravishta o'sib ko'payishiga yordam beradi. Respublikamizda ko'plab noananaviy o'simliklarni navlari ekiladi. shulardan biri chia o'simligini oladigan bulsak Chia (*Salvia hispanica*) Yalpizdoshlar oilasiga (Lamiaceae) mansub bo'lib bir yillik o'simlik. chiani dala sharoitida olib borgan tajribamizga ko'ra o'rtacha hisobda vegetatsiya davri 6-7 oy, bo'yi 136,1 sm, 1000 dona urug' vazni 1,258-1,385 gr, urug' to'kilishga bardoshlilik va hosildorlik: 20-25 s/ga. urug'dagi oqsil miqdori 24 %, uglivodlar 31%, vitaminlar va meniral moddalar 64% va vaxakazolar. Mamlakatimiz Samarqant hududida yetishtirdik. Hozirda Qashqadaryo viloyatiga yetishtirishni rejalashtirdek kiyinchalik qolgan viloyatlarda yetishtirishni yulga quyamiz. Fiziologik ko'rsatkichlardan urug'larning unuvchanligi aniqlangan. Laboratoriya sharoitida olib borilgan tahlillar asosida mahalliy va xorijiy fasol namunalari urug'larini unuvchanligi yuqori bo'lishi qayd etilgan Lamiaceae turlariga mansub namunalarda laboratoriya sharoitida urug' unuvchanligi yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etgan. Bu esa urug'larini unuvchanligi yuqori bo'lishi dala tajribalarini olib borish jarayonida yuqori samara berishi aniqlangan. Tajriba turli harorat darajalarida olib borilgan. Harorat ko'tarilgan sari urug'larda unish qobiliyati tezlashgan lekin Ko'p o'tmay murtaklar nobud bo'lishi tajribalarda o'z tasdig'ini topgan. Tadqiqot ob'ekti sifatida chia *Segia* turiga mansub namunalari hamda mahalliy Chia (*salvia hispanica*) navlaridan foydalanildi.

TADDIQOT NATIJALARI

Ma'lumki, o'simlik urug'larining unish quvvati, unuvchanlik darajasi ularda sodir bo'layotgan biokimyoviy va fiziologik jarayonlarning xususiyatlarini, unib chiqqan yosh maysalarning o'sish va rivojlanish tezligini belgilaydi. Ma'lumki, o'simlik urug'larining unish quvvati, unuvchanlik darajasi ularda sodir bo'layotgan biokimyoviy va fiziologik jarayonlarning xususiyatlarini, unib chiqqan yosh



maysalarning o'sish va rivojlanish tezligini belgilaydi [2]. Mamlakatimizni muhim tarmoqlaridan biri hisoblangan agrar sohada Urug'chilikni to'g'ri tashkil etish hosildorlikning garovi hisoblanadi. Bu esa xorijdan keltirilgan yangi o'simlik namunalari urug'chiligini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Chia o'simligi urug'larning unuvchanligini dala sharoitida o'rganishdan oldin ularni unib chiqish quvvati va unuvchanligini laboratoriya sharoitida o'rganildi. Bunda chia urug'lari laboratoriya sharoitida, termostatda, har bir Petri idishlarda 100 donadan filtr qog'ozda ekilgan urug'larning unib chiqish quvvati va unuvchanligi GOST 12037. talabi bo'yicha 4 qaytariqda aniqlandi. Laboratoriya sharoitida GOST 12038-84 talabi bo'yicha chia urug'lari ekilgandan so'ng unib chiqish quvvati 3 kunda va laboratoriya unuvchanligi 7 kunda aniqlandi.

Olingan natijalar va ularning tahlili.

Dala ekinlarini o'sishi, rivojlanishi va hosildorligini o'rganishda urug'larni unuvchanligini, ayniqsa laboratoriya unuvchanligini aniqlash katta ahamiyatga ega. Olingan ma'lumotlarga ko'ra chia urug'larining unib chiqish quvvati bo'lib o'rtacha 84,7 % ni, urug'larning laboratoriya unuvchanligi 98,4 % ni tashkil etdi (1-jadval). Laboratoriya sharoitida olib borilgan tahlillar asosida Chia urug'larini unib chiqish quvvati va laboratoriya unuvchanligi yuqori bo'lishi dala tajribalari olib borish yuqori samara berishi mumkinligi ko'rsatadi.

1-jadval

Laboratoriya sharoitida chia urug'lari unuvchanlik ko'rsatkichlari

№	Qaytariqlar	Unib chiqish quvvati, %	Laboratoriya unuvchanligi, %
1	I	85,4	98,3
2	II	83,7	97,9
3	III	85,2	99,1
4	IV	84,3	98,2
	O'rtacha	84,7	98,4



1-rasm Laboratoriya sharoitida chia urug‘lari namunalarida urug‘ Unuvchanligi



XULOSA

Olingan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, haroratning ortib borishi esa Urug‘larning dastlabki kundagi unuvchanligiga ijobiy ta’sir qilgan bo‘lsada, keyingi kunlardagi unuvchanlikni biroz pasaytirishi va umumiy unuvchanlik ham biroz past bo‘lishi kuzatildi. chia namunalarini laboratoriya sharoitida urug‘larini laboratoriya sharoitida unuvchanligi yuqori bo‘lishi dala tajribalari olib borish yuqori samara berishi mumkinligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Байкова Е.В. Закономерности морфологической эволюции шалфеев (*Salvia*, Lamiaceae) // Автореф. дисс. док. биол. наук.- Москва, 2005. -36 с.
2. Meyliyeva G.F. [CHIA \(*Salvia hispanica*\) O‘SIMLIGINING FOYDALI XUSUSIYATLARI](#)-Яндекс: нашлось 10 (yandex.ru) .
3. Meliyeva, G. F. Q. (2023). CHIA (*Salvia hispanica*) O ‘SIMLIGINING FOYDALI XUSUSIYATLARI. *Academic research in educational sciences*, 4(SamTSAU Conference 1), 661-663.
4. Қўшоқович, Қ. С., Спйфидинов, Х. З., & Самаридинович, Қ. Н. (2024). ГИЛОС (*CERASUS AVIUM L.*) МЕВАЛИ ЭКИНИНИ ЕТИШТИРИШНИНГ АМАЛИЙ ЖИХАТЛАРИ. *TADQIQOTLAR. UZ*, 31(1), 154-159.
5. Shavkatovna, X. M., Ziyedullayevich, S. X., & Qo‘shoqovich, Q. S. (2024). SHAFTOLI, OLXO ‘RI VA BODOM PAYVANDTAGLARINI ISSIQXONADA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI. *TADQIQOTLAR. UZ*, 31(1), 163-167.



6. Meliyeva, G. F. Q. (2023). CHIA (Salvia hispanica) O ‘SIMLIGINING FOYDALI XUSUSIYATLARI. *Academic research in educational sciences*, 4(SamTSAU Conference 1), 661-663.
7. Mohd Ali, N., Yeap, S. K., Ho, W. Y., Beh, B. K., Tan, S. W., & Tan, S. G. (2012). The promising future of chia, Salvia hispanica L. *BioMed Research International*, 2012.
8. Cahill, J. P. (2003). Ethnobotany of chia, Salvia hispanica L.(Lamiaceae). *Economic botany*, 57(4), 604-618.
9. Yalgashev, A., & Murodova, D. (2023). ZAMBURUG ‘LI KASALLIKLAR SARIQ VA QO ‘NG ‘IR ZANGA ChIDAMLI NAV NAMUNALAR. PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION, 19(23), 134-137.
10. Farxodovich, Y. A., Zokirovna, I. M., & Ziyedullayevich, S. X. (2024). YUMSHOQ BUG‘DOY JAHON KOLLEKSIYASI NAV NAMUNALARINI QISHGA CHIDAMLILIGI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 15(3), 15-22.
11. Norboy o‘g‘li, A. S., Farxodovich, Y. A., & Zokirovna, I. M. (2024). YUMSHOQ BUG ‘DOY DURAGAYLARNING MIQDORIY BELGI VA XUSUSIYATLARINI, IRSIYLANISH DARAJASI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 16(1), 86-91.
12. G‘Aybullayev, G. U. S., Xayitov, A. B., & Yalgashev, A. F. (2023). KUZGI YUMSHOQ BUG'DOYNING QISHKI SOVUQLARDAN JAROHATLANISHI BA UNI ANIQLASH. *Academic research in educational sciences*, 4(SamTSAU Conference 1), 867-871.